



"Boshlang'ich sinflarda savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi"

*Surxondaryo viloyati Jarqo'rg'on tumani*

*49-sonli umumta'limgak maktabining*

*boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

*Kurbanova Dilbar Muxammadiyevna*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada savod o'rgatish davrida o'qitishning maqsad va vazifalari, metodik qo'llanmaning tuzilishi, savod o'rgatish davrida analitik-sintetik tovush metodi, bolalarga axloqiy, g'oyaviy-siyosiy, mehnat va estetik tarbiya berish haqida fikr mulohazalar yuritildi.

**Kalit so'zlar:** analitik-sintetik, metod, savod, tayyorlov davri, alifbe, bilim, bo'g'in-tovush tahlili, tovush va harf tahlili, bo'g'inlab o'qish tamoyili, bo'g'inga bo'lish.

Mustaqillik tufayli O'zbekiston Respublikamizda har bir kishining savodxon bo'lishiga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov kelajak avlodni savodxon, yuksak ma'naviyat egasi bo'lib yetishishlari uchun g'amxo'rlik qilganlar. Yurtboshimiz tomonidan yangi o'quv yilida 1-sinfga qadam qo'ygan jajji o'quvchilarga darslik va o'quv qurollarining sovg'a qilinishi buning isbotidir. Ta'lim tarbiya tizimining bugungi kundagi vazifasi o'sib-ulg'ayib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirgan kelajakda jamiyatda o'z o'rnini egalashga erishgan-komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohatlarda umumta'limgak maktablari hal qilivchi kuchga aylangani ayni haqiqatdir. Maktablarda kelajak avlod vorislarini tarbiyalashga yo'naltirilgan imkoniyatlar o'z navbatida, pedagog xodimlardan sifatli ta'lim-tarbiya berishni, o'quvchi yoshlardan esa puxta bilim olishni talab etadi. Bu o'z navbatida har bir o'qituvchi zimmasiga yanada yuksak mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Boshlang'ich ta'lim ta'lim-tarbiyaning poydevoridir. Poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa imorat shunchalik chidamli bo'lganidek, mukammal boshlang'ich ta'lim olgan o'quvchilar yuqori sinflarda va ta'limning keyingi bosqichlarida hech qiynalmasdan yanada yuksak natijalarga erisha oladi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilar savodini chiqarishda, ularga mustahkam bilim berish va ularda zaruriy ko'nikma va malakalarini shakllantirishda barcha imkoniyatlarni ishga solishlari, ilk ta'lim-tarbiya jarayonini sifatli olib borishi lozimdir. Bu vazifa har bir o'qituvchi zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklaydi. Maktablardagi ta'limning hamma bosqichlarida



o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarni rivojlantirish juda muhimdir. Lekin kichik yoshligidan boshlab ularning ijodiy fikrlashini shakllantirish alohida ahamiyatga ega. Chunki boshlang'ich sinflarda, xususan, ta'limning birinchi yili bolalarga o'qish qobiliyatlarini shakllana boshlandi. Chunki ta'limning Savod o'rgatish davrida o'qitishning maqsad va vazifalari o'quvchilarning boshlang'ich sinfda ona tili ta'limi bo'yicha egallaydigan bilim, ko'nikma va malakalari, ularga qo'yiladigan talablar davlat hujjati bo'lgan o'quv dasturida belgilab berilgan. Shuningdek, savod o'rgatish dasturida ham savod o'rgatish jarayoni va uning vazifalari aniq ko'rsatilgan. Dasturga ko'ra 1-sinfga kelgan bolalarining savodini chiqarish elementar o'qish va yozishga o'rgatishdan boshlanadi. Ular boshlang'ich sinf davomida sidirg'a o'qish va savodli yozish kabi adabiy til me'yorlarini egallaydilar. Savod o'rgatish dasturida savod o'rgatish jarayoni ikki davrga bo'lib ko'rsatilgan: alifbogacha bo'lgan tayyorlov davri va alifbo davri. "Alifbe" darsligiga asoslangan holda savod o'rgarish o'quv darslari o'quvchilarni 4 oy davomida elementar o'qishga, yozuv darslari esa yozishga o'rgatilishi lozim. Demak, savod o'rgatish darslarining asosiy maqsadi o'quvchilarni o'zbek tilidagi barcha tovushlar va harflar bilan tanishtirish, o'qish va yozish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Savod o'rgatish davrida o'qitish vazifalariga dasturda belgilab berilgan talablarni amalga oshirish kiradi. Jumladan, savod o'rgatish jarayonida harflarning 4 xil: bosma, yozma, bosh va kichik shaklini va ularning ishlatilish o'rnini o'rgatish. Savod o'rgatish darslari harflarning 4 xil shakli asosida harflarning tovush ifodalashini, tovushlar harflar bilan ifodalanishini, tovushni tanish, uning to'g'ri talaffuzi, so'zdagi o'mini aniqlashni, undosh va unli tovushlarni farqlashni, bo'g'inga bo'lish, bo'g'inlar sonini aniqlash, bo'g'inni mo'ljallab o'qish bilimlarini berishi va ko'nikmalarni shakllantirishi zarur. O'quvchilarni bo'g'inlab o'qishga o'rgatish. O'quvchilarni o'qishga o'rgatishda bo'g'inning asos qilib olinishi o'quvchilarga amaliy namunalar asosida o'rgatiladi. Bo'g'inlab o'qishga o'rgatish uchun so'zni bo'g'inga bo'lish, bo'g'in chegarasini aniqlash mashqlari har bir darsda tadrijiy ravishda izchil o'tkaziladi. O'quvchilar savod o'rgatish tayyorlov davridan so'zlarni bo'g'inga bo'lishni mashq qilib, alifbo davrida ham izchil davom ettirsalargina bo'g'inlab o'qish ko'nikmasini yaxshi egallaydilar. Savod o'rgatish jarayoni o'qish va yozuv darslarida o'quvchilarni to'g'ri, me'yorida o'qishga o'rgatish. Buning uchun amaliy ravishda jarangli va jarangsiz undoshlarni taqqoslash, talaffuzidagi farqlarni, so'z ma'nosini o'zgartirib yuborishini anglashlarini, barcha tovushlarning yakka va so'z tarkibidagi artikulatsiyasini o'zlashtirishlarini ta'minlovchi mashqlarni tashkil etish savod o'rgatish darslarining vazifasiga kiradi.

Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi. Analitik-sintetik (tovush-tarkib) tovush metodiga K.D.Ushinskiy asos solgan. Bu metod hozirgi kunga qadar ancha takomillashtirish. Shu Bois analitik-sintetik tovush metodining an'anaviy hamda shakllanish, tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardan iborat.



1. Savod o'rgatishda analitik-sintetik tovush metodi shaxsni shakllantirish maqsadiga ko'ra ta'limiylar va o'stiruvchi xarakterlanadi bo'ladi, nutqiy mashqlarni orqali aqliy o'sishini ta'minlaydi, o'qishning ongli bo'lishini talab etadi.

2. Analitik-sintetik tovush metodi tashkiliy tomondan quyidagi ikki davrga bo'linadi:
- alifbegacha tayyorlov davri;
  - alifbo davri.

Bunda yozuvga o'rgatish o'qishga o'rgatish bilan parallel holda olib boriladi.

3. Analitik-sintetik tovush metodida psixolingvistik nuqtai nazaridan quyidagilarga e'tibor qaratiladi:

- savod o'rgatish bolalarning jonli nutqiga, ular egallagan nutq malakasiga asoslanadi;
- savod o'rgatishga tovush asos qilib olinadi, unda tovushni ajratishga, analiz va sintez qilishga, tovushlar artikulatsiyasiga, bolalarda fonematik eshitishni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi ;
- o'qish birligi sifatida bo'g'in olinadi, bo'g'in ustida ishlashga katta ahamiyat beriladi.

Metodning shakllanish va tashkil topish jarayonidagi tamoyillari quyidagilardir:

- Ta'lim jarayonini tashkil etish nuqtai nazaridan: savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarga differentsial individual yondashish (bu bolaning umumiyligi rivojlanishi hamda o'qish va yozishga tayyorgarligidan bog'liq).
- O'qitishning istiqboli nuqtai nazaridan: grammatika, so'z yasalishi, imlo, leksikologiyaga oid bilimlarni nazariyasiz amaliy asosda muntazam berib borish.
- Psixolingvistik nuqtai nazaridan: tovush va harfni o'qitishning qulay usulini izlash, tovush va harflarning mosligini, osonligini, ta'larning tarbiyaviy va o'stiruvchi xarakterini hisobga olish.

Savod o'rgatish analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi. So'ng bo'g'inga ajratiladi, bo'g'indan kerakli - o'rganilayotgan tovush ajratilib olinadi, tahlil qilinadi, o'rganilgan harf bilan sintezlanadi.

Hozirgi o'zbek tili unlilar sistemasi: o, u, o', e, i, a. Savod o'rgatishda tovush-harf bilan tanishtirish unlilardan boshlanadi.



E - harfi so‘z va bo‘g'in boshida o‘rtal keng lablanmagan unli o‘rnida va undoshdan keyin yoziladi: Savod o‘rgatishda oldin so‘z boshida keladigan e, so‘ng undoshdan keyin keladigan e o‘rgatiladi.

O harfi o‘zbekcha, umumturkiy so‘zlarda quiy keng, lablangan o tovushini ifodalaydi. Ruscha - internatsional so‘zlarda urg'usiz bo‘g'inda a tarzida (kalxoz), o‘tovushi kabi (to‘nna), qisqa I tarzida (rektir) talaffuz qilinadi. Shuning uchun bu unlili so‘zlar savod o‘rgatish davridan so‘ng o‘quv jarayoniga kiritiladi.

O‘zbek tilida 24 ta undosh tovush bor. Shulardan 3 tasi harf birikmasi. 24 ta undosh tovush, 23 ta undosh harf bilan belgilanadi. Undoshlarni o‘rgatishda ham muayyan tartibga asoslanadi.

Alifbo davri sonor - ovozli (ovozdor) tovushlarni o‘gatishdan boshlanadi. Lekin ng sonor undoshi n va g undoshi tovush harfi bilan tanishtirilgach o‘rgatiladi. Harf birikmalarini o‘rgatishdagi qiyinchilik hisobga olingan holda ular alifbe davrining oxirrog‘ida o‘rgatiladi.

J harfi ikki tovushni ifodalaydi, shuni hisobga olib, unga alohida darslar ajratiladi. Savod o‘rgatish jarayonidanoq harfnинг 4 xil varianti (bosma, yozma, bosh va kichik) ning ishlatalishi o‘rgatiladi.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga tarbiya ham berib boriladi. Tarbiyalash didaktikaning muhim tamoyillaridandir. Maktabda axloqiy tarbiya beriladi, ilmiy dunyoqarash elementlari shakllantiriladi. Bolalar darsda ommaviy siyosiy tushunchalarni egallaydilar.

“Alifbe” sahifalarida do’stlik, baynalmilal munosabat, bolalar mehnati, tabiat, kattalar mehnati, bolalar o‘yinlari, oila, maktab hayotiga oid rasmlar berilgan, turli mavzularda matnlar keltirilgan. Bular bolalarda o‘zaro do’stlik, mehnatsevarlik, mehnatni qadrlash, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, tabiatni sevish va asrash, hayvonot dunyosiga qiziqish, ularni muhofaza qilish, maktab va o‘qishni sevish, umuman estetik tarbiyani shakllantiradi. Demak bolalarga axloqiy, g‘oyaviy-siyosiy, mehnat va estetik tarbiya berish ham savod o‘rgatish vazifasiga kiradi. O‘qituvchi savod o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarga tovushlar haqida ma'lumot berishda o‘zbek tilining fonetik xususiyatlarini hisobga olish zarur.

## Foydalanilgan adabiyotlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712-sonli farmoni.



Karima Qosimova va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent 2022. 25-26 betlar.

R. Mavlonov, N. Rahmonqulova. Boshlang'ich ta'limda pedagogika, innovatsiya, integratsiya. Toshkent-2013. 95-bet.

O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartlarining davlat tizimi. Oliy ta'lim. 5141600 - Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ishi yo'nalishi. -Toshkent: 2006

«RESEARCH AND PUBLICATIONS»



«VILAYETIY NASHLAR MARKAZI»